

ANVAR OBIDJON QISSALARIDA FANTASTIK QAHRAMON YARATISH
MAHORATI

Marqurbonova Muhabbat Shokirovna

Urganch innovatsion university o'qituvchisi

Kazakova Gulasal Kuralovna

Urganch innovatsion university o'qituvchisi

gulasalkazakova@mail.ru

So'nggi davr bolalar nasridagi yangilanish tamoyillarini Anvar Obidjon ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Adib yaratgan qissalarda personajlarning o'ziga xos xatti-harakati, syujet yo'nalishlarining qahramonlar ruhiyatiga monand bo'lishi, peyzaj va asar pafosi xarakter yaratish mahorati epik turning takomiliga katta hissa bo'lib qo'shiladi. Iste'dodli adib o'zbek qissachiligida alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini aks ettirish asosida va hajviy adabiyot an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan adiblardan biridir.

"Meshpolvonning janglari", "Alamazon va Gulmat hangomasi", "Oltin yurakli avtobola", "Atrofimizdagi qiziqchilar" kabi qissalari sarguzasht janrda bitilgan bo'lishiga qaramay badiiy mukammalligi bilan keng kitobxonlar ommasini jalb etdi. Yozuvchi asarlari real voqelik va fantaziya olamini ajabtovur uyg'unlashtirib, badiiyatning o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi.

Anvar Obidjon asarlariga xos poetik olam olimlarimiz tomonidan atroflicha tahlilga tortilgan, biroq adibning fantastik qahramon yaratishdagi o'ziga xosligi, bolalar adabiyotida uning tutgan o'rni yetarlicha tahlil etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ijodkor qissalarining yosh avlod tarbiyasi borasidagi ahamiyatini alohida ta'qidlash joiz.

"Dahshatli Meshpolvon" doston qissasi xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan bo'lib, afsonaviy Meshpolvonning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Asar qissaga xos voqealar tizimiga egaligi hamda doston janriga hos yetakchi tamoyillar asosida yaratilgani bois xuddi xalq og'zaki ijodidagi dostonlardek muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega, ya'ni voqealar bosh qahramonning sirli sarguzashtlari fonida kechadi. Bosh qahramon Meshpolvon ota-onasini Sepkilshohning tutgunligidan ozod qilishi uchun mashaqqatlarni boshdan kechirdi. Qiyinchiliklarni bartaraf qilishda misli ko'rinmagan qahramonliklar ko'rsatdi. Qahramonliklar esa maqsad yo'lidagi fidoyilik, orzularning ushaliishiga olib keladi. Asarning badiiy qimmatini oshirishda ham aynan shu qahramonlik motivlarining roli beqiyos, ahamiyati katta. Shu jihatdan bu asarni qahramonlik doston-qissasi sirasiga kiritish mumkin. Bosh qahramon Meshpolvon va unga hamrohlik qilgan Oshiq bola, Chumakvoy, Rayhon qiziq obrazlari sermashaqqat va tahlikali sarguzashtlarni, ajoyib-g'aroyib voqealarni boshdan kechiradi, turli dushman kuchlari bilan to'qnashib qahramonlik ko'rsatadi. Oqibat ezgu maqsadlariga erishadilar. Pok qalbli, hamisha zulmga qarshi kurashgan adolatparvar qahramonlar qiyofasi ijodkor qalamida shunday chiziladiki, o'quvchi qahramonning g'aroyib safariga sherik bo'ladi.

Uning dardini his qilib, ko'nglida, ba'zan achinish hissini tuyadi. Qissadagi sarguzashtlar, ertaklardagidek xayoliy hodisalar, ayni paytda, hayotiy voqealar bilan aralash tasvirlanadi. Zulm va nohaqlikka qarshi kurashgan qahramonlar oxir-oqibat murod maqsadiga yetishishi xalq ijodining xuddi ertak janridek o'quvchi diqqatini tamomila o'ziga tortadi.

Bu doston qissa she'riy san'atlarga badiiy tasvir vositalariga boy. Meshpolvon va uning do'stlari fe'l-atvori, tabiat manzaralari, o'zbekona rasm-rusum va urf-odatlar hamda "g'aroyib" jang tasvirlari yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan. Asar qofiyali nasr (saj)ning go'zal namunasidir. Deyarli har bir nasriy parcha qofiyali. Dostonning vazni ham o'ziga xos she'riy qismi, asosan, 5,7,8,9,12 bo'g'inli barmoq vaznida. Asarning tili sodda, ayni paytda, juda qiziqarli. Unda adabiy tilimizni boyitishga xizmat qiladigan hikmatli so'z va atamalar juda ko'p. Misralarda ibratli so'zlar, mavsum va marosim qo'shiqlari xalq o'yinlari kiritilishi dostonlarga xos badiiy detaldir.

Obraz yaratilishda ijodkor mahorati namoyon bo'lgan. Chunki u Meshpolvon obrazini yaratishda bolalarga xos samimiylik, uddaburonlik, chaqqonlik kabi xislatlarni bir obrazda jam qilish bilan bir qatorda shu obrazning o'zini vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalangan shaxs sifatida ham gavdalantirgan. Meshpolvon va uning do'stlari obrazini ijodkor goh quvnoq, goh samimiy, goh ayanchli vaziyatlarda fantastik tasvirlar orqali ifoda etilmasin ijodkorning bosh maqsadi kulgi yo'li bilan bola tarbiyasiga ta'sir etish, uni yuksak insoniy xislatlarga o'rgata borish, hayotda ezgulikning borligiga ishontirish sidqidildan mehnat qilish, yaqinlari uchun fidokor bo'lishga o'rgatishdir. Asar muallifining bu borada aytgan "Kulgili asarlar bolalar adabiyoti bog'ining atirgulidir. Bolalar kulgiga juda o'ch xalq. Ularni yomon ishlar, bo'lmag'ur odatlar ustidan kuldirish tarbiyaning eng samarali usullaridan biri..."[2:2], fikrlari ayni haqiqat.

Obrazlar sistemasini ajratish asar tahlilidagi muhim unsurlar sirasiga kiritilib, obrazlarning bir-biri bilan mazmuniy munosabati asosida asarning mazmuni ochiladi. "Dahshatli Meshpolvon" qissasida ham qahramonlar xatti-harakati ijodiy fantaziya asosida ijodkor tomonidan qalamga olinganki, beixtiyor o'quvchi xayolan qahramon bilan voqealar tizimida harakatda yuradi. Qahramonlik xislatlarini namoyon etsa sevinadi, hayratga tushadi, omadsizlikda va ilojsizlikda g'am cheksa, undanda ko'proq azob tortadi. Insonning kutilmagan holatlarga tushib qolishi va avval sira kechirmagan kechinmalarini his qilish kabi murakkab vaziyatlarni tasvirlash, adolatni mayoq qilib, nopoklar bilan dadil kurashga chog'langan obrazlar tasviri qissada ba'zan tabiiy, ba'zan xayoliy hodisalar fonida gavdalantirar ekan, ijodkorning ifoda uslubida fantaziya va kulgining roli beqiyosligini, ulardan o'rinli foydalanish asarning badiiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan muhim omil ekanligini ta'kidlash lozim. Shu o'rinda, ijodkorning quyidagi fikrini keltirib o'tish joiz... "Asarda fantaziya, rivoyatchilik, latifabozlik qanchalik keng o'rin tutmasin, ular to'laligicha adib o'rtaga tashlagan real hayot muammolarini hal etishga xizmat qilishi darkor. Fantaziya ko'proq hangomabozlik uchun foydalangan ijodkor xato qiladi"[2:2].

Asarda fantastik voqealar va kulgiga keng o'rin berish ijodkorning o'zigagina xos uslubi bo'lib, betakror badiiy olam yaratishga intilgan noyob iste'dod egasi ekanligi ayni haqiqat.

Bolalar adabiyotiga xos yetakchi tamoyillardan yana biri ijtimoiy hayot muammolari, ma'naviy-axloqiy yoki maishiy hayotga oid muammolarni ko'tarib, ularning

inson hayotiga ta'sirini badiiy tadqiq etishdan ko'ra bu muammolar xususida atroflicha mushohada yuritish, yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashga da'vat etishda ko'rinadi. Shu jihatdan A.Obidjonning "Oltin yurakli avtobola" asari shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini tabiiyligicha, bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlashga erishilgan asar. Insonni har jihatdan anglash tendentsiyasi asar mohiyatiga singdirilgan asosiy omildir.

Qissada ma'naviy dunyosi, yashashdan maqsadi turli tuman bo'lgan obrazlarni uchratamiz. Halol, to'g'riso'z, ilm-u hunarni e'zozlagan Kamol Kamtariy, boylik ilinjidagi ikkiyuzlamachi, poraxo'r Bekxo'ja va uning hamtovoqlari obrazlarining bolalik olami hamda katta hayotdagi o'zaro ziddiyatlari asarda konflikt darajasiga ko'tarilgan. Bir qarashda qissa ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurashdek ko'rinsada, yozuvchi ilgari surmoqchi bo'lgan g'oya ko'p tarmoqli ekanligiga amin bo'lamiz. Kamol Kamtariyning boshiga tushgan og'ir judolikdan keyin o'zidagi bor iste'dod va irodani ishga solib yaratgan kashfiyot "Avtobola" obrazi bir qarashda robotni eslatadi. Aslida esa u professor tasavvuridagi "ideal, o'lmas inson" edi. U yaratgan, "avtobola" vaqti kelib tosh yurakli insonlar qo'lidagi xavfli „Avtoo'g'riga aylanib qolganida, xuddi yuragining bir parchasi darz ketganday kuyunadi. Avtobolaning yuragi qimmatbaho oltindan esa-da, hayotning ziddiyatlariga qarshi kurasha olmay nobud bo'ldi. "Uning ochiq qolgan munchoq ko'zlarida mislsiz azob borliqqa nisbatan hadik izlari yaqqol aks etib turar va bu ko'zlar erkimni himoya qilolmas ekansan, nega meni yaratding" degan savolni tinimsiz takrorlayotganga o'xshardi"[3:36].

Hatto temir tananing ham insoniylikka monand tuyg'ulari shakllanar ekan, nega Bekxo'ja kabi "temir qalb"larning yuragida odamiylik tuyg'ulari uyg'onmaydi. Shafqatsizlik va adolatsizlikka chiday olmagan Avtobola halokatga yuz tutsa ham, inson zoti bunchalik qabohat va tubanlikdan bosh tortmaydi.

Ijodkor ushbu qissani yozishda hech qanday ilmiy kashfiyotga da'vosi yo'qligini, aksincha, bu sataroshdan eshitgan ertak qissa ekanligini ta'kidlaydi. Yozuvchining badiiy maqsadi fantastik obrazlar yaratishda faqat asarning "o'qimishli" ekanligini ta'minlash emas, bolalarni kattalarga, atrof-muhitga, hayotga mehr-muhabbatli tarbiyalashdir. Ijodkorning badiiy obraz yaratish jarayonida shakllangan tasvir tamoyillari, uslubiy o'ziga xosliklar, qahramon ruhiy holatini tasvirlashdagi estetik mezonlar so'nggi davr bolalar nasrida qahramon yaratish tamoyillari yangilanayotganidan dalolat beradi. Asarlarda fantastika va hajviyaning yetakchilik qilishi Anvar Obidjon asarlarining eng katta yutug'i desak ayni haqiqatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamasoli Jumaboyev. "Bolalar adabiyoti". T.: 2010.
2. WWW. Bolalar adabiyoti@mail.ru. Anvar Obidjon. Bolalar adabiyoti.
3. Anvar Obidjon. Oltin yurakli avtobola. 1988.
4. I. M.Qo'shjonov. "Mahorat sirlari". T.: 1968